

**Iqtisodiyotning siklligi va Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar****Ravzatov Jonibek**

Raqamli iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

Qulasharov Umarjon Shokir o'g'li**Norboyev Adham Parda o'g'li****Choriyev Fazliddin Erkin o'g'li**

Denov tuman, Tadbirkorlik va pedagogika instituti

Annotatsiya: Iqtisodiyotda yuz beradigan o'sish tushish va barqaror holatlarni o'rganish va har qanday og'ir holatlardan samarali va zararsiz chiqib ketish, shu bilan ayrim yuz beradigan inqirozlarga qarshi turish rejalarini tuzish. Ushbu maqoladan maqsad ayrim og'ir tushish bilan undan chiqib ketish yo'llarini o'ylab topish, aholi farovonligi uchun cheklangan resurslardan oqilona foydalanish, ularni to'g'ri va samarali rejalar asosida amalga oshirish asosiy maqsad sifatida qaratiladi. Dunyo hamjamiyatida shu kabi xulosa olgan holda keying qadamlarni va rejalarni xuloasalar va natija, statistikaga asoslangan holda tuzishdan iboratdir. Asosiy maqsad, ushbu mavzu bo'yicha ro'y beradigan hodisalarni o'rganish va tahlil qilishdan, shu jumladan muamoli vazuyatdan chiqib ketish yo'llarini o'ylab topishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy sikllik, iqtisodiy chastota, retsessiya, stagnatsiya, depressiya, multipikator samarasi.

Iqtisodiy sikl - umumiy iqtisodiy faollikning muayyan yillar davomida davriy yuksalib va pasayib, tebranib turishi; bir necha yillar davomida iqtisodiyotda yuksalish va pasayishning davriy takrorlanib turishi, yuksalish, tanglik, depressiya, jonlanish fazalaridan iborat. Vaqtga nisbatan har 20—25-yilda takrorlanib turadigan uzoq va har 5—10-yilda takrorlanadigan qisqa Iqtisodiy siklligi bor. Alohida Iqtisodiy sikllik bir-biridan




davomiyligi va jadalligi bo'yicha keskin farqlanadi. Shu bilan birga ularning hammasi bir xil fazalarga ega bo'ladi. Siklning eng yuqori nuqtasida iqtisodiyotda to'liq bandlik kuzatiladi va iqtisodiy chastota to'liq yoki deyarli to'liq quvvat bilan ishlaydi. Siklning bu fazasida narx darajasi o'sish tamoyiliga ega bo'ladi, iqtisodiy faollikning o'sishi to'xtaydi. Tanglik fazasida iqtisodiy chastota va bandlik qisqaradi, ammo narxlar pasayish tamoyiliga berilmaydi. Tanglikning quyi nuqtasida iqtisodiy chastota va bandlik o'zining eng past darajasi bilan harakterlanadi. Jonlanish fazasida iqtisodiy chastota darajasi ko'tariladi, bandlik esa to'liq bandlik darajasigacha o'sadi.

Iqtisodiyot nazariyasida Iqtisodiy sikllikning asosiy sababi yalpi talab bilan yalpi taklif o'rtasidagi muvozanatning buzilishi va uning yana kaytadan tiklanishi tarzida izohlanadi. Iqtisodiy sikllik milliy iqtisodiyotning o'zini o'zi tartibga solishi usullaridan biridir.

Siklni keltirib chiqaruvchi omillar:

- takror ishlab chiqarishdagi nomutanosibliklar;
- talab va taklif o'rtasidagi nomutanosibliklar;
- yalpi sarflar darajasining o'zgarishi(o'z navbatida bu sarflar hajmini ishlab chiqarish va bandlik darajasi belgilab beradi;
- investitsiyalar hajmining davriy kamayishi;
- pul massasi hajmining tebranishi;
- asosiy kapitalning yangilanishi;
- multiplikator samarasining kuchsizlanishi va boshqalar;






Ushbu berilgan infogarikada iqtisodiy sikllikni misol sifatida olsak bo'lsak bo'ladi. Sabab har qanday holda yoki joyda o'sish yoki tushish va tur'g'unlik holatlari yuz bersa misol sifatida olsak bo'ladi. Ushbu berilgan yillarni ko'rib guvohi bo'lishimiz mumkinki, Iqtisodiy sikklikning uchala holati ham kuzatilgan.

Shuni yaqqol misol tariqasida keltirish mumkinki, 1950-1960-yillardan keyingi yillarda Aqshda ishsizlik va

aholi turmush tarzi farovonligi keskin tushib ketdi. Ushbu holatni yaqqol stagnatsiyaga misol qilib olsak bo'ladi. Ammo Aqshdagi ushbu tan ahvolni mashhur iqtisoshunos prezidenti John Kennedy bu holatga yechim topadi. AQShning yosh senatori prezident bo'lish uchun qasamyod qilar ekan, u o'sib borayotgan ishsizlik, tushkun daromad va qimmatli qog'ozlar bahosi bilan kurashayotgan iqtisodiyotni tuzatishga kirishadi. U chuqur tanazzul uning kengroq ichki va diplomatik kun tartibini ilgari surishiga xalaqit berishi mumkinligini biladi. Ha - barchasi prezident Obama uchun to'g'ri.

Ammo Jon Kennedi ham shunga duch keldi. 1961 yil yanvar oyida o'zining sovuq inauguratsiya kunida Kennedi "Amerikani yana harakatga keltirish" uchun saylovoldi va'dasini bajarishga kirishishi kerak edi. Obama singari, u ham juda shubhali biznes hamjamiyatini mag'lub etishi kerak edi.



Prezident
Kennedi 1962
yilda iqtisodiyot
haqida xalqqa
murojaati



Xulosa: Tarixdagi va voqea-hodisalardan qanday qutulish va ulardan xulosa olgan holda yangi rejalar va shunga asoslangan holda aholini farovon va har qanday ehtiyojlarni qondirish asosiy maqsad degan holda harakat qilish, butun hamjiyat va butun dunyo bo'yicha ushbu holatlarni oldini olish va iqtisodiyotni yuksaltirishga qaratilgan g'oyalarni ilgari surish bosh maqsad sifatida amal qilish.

Mening taklifim: Ushbu mavzudan kelib chiqqan holda yuqoridagi uch holatlarni oldini va rivojlantirishga qaratilgan har qanday g'oya va takliflarni eshitib, ularning eng maqbulini aholiga tatbiq qilish, kerak bo'lsa davlat tizimiga tatbiq qilish kerak. Chunki hamma g'oya va takliflar ideal darajada bo'lmaydi va lekin ular birlashsa mukammal g'oya, hamda kamchiliklari juda kam bo'ladi. Yoshlar va Iqtisodchilar orasida shu kabi va boshqa masalalarining muhokama qilinishi, brifing, davra suhbat, press-klublar tashkil etilishi shu va boshqa masalalar yechilishida juda katta turtki va yoshlarga ancha katta bo'lgan tajriba manbayi bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni demoqchimanki yoshlar va iqtisodchilar o'rtasida shu muhokamalar ko'pligi, iqtisodiy savodxonlikning oshishi va muammolarni hal qilishda shaxsiy ega bo'lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.wikipedia.com, www.arxiv.com, www.stat.uz, www.lex.uz,
2. <https://sherqul+shodmonov+ochiq+enskilopideya;/com>, www.economicfoundation.com